



BOLALAR SEREBRAL FALAJI

*Andijon davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim fakulteti
Maxsus pedagogika Logopediya yo'nalishi talabasi
Akbaraliyeva Marhaboxon Akmaljon qizi*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15258183>

Annotatsiya. Bolalar serebral falaji – bu bosh miya harakatlantiruvchi zonalari va bosh miyadagi harakatni yo'naltiruvchi yo'llarini zararlanishi bilan kechadigan markaziy nerv sistemasini kasalligidir.

Kalit so'zlar: nerv, serebral, bola, shakllanish, qo'l, oyoq, ichkari, nutqiy, aqliy, jismoniy.

Odam organizmi tashqi muhit bilan doimo aloqada bo'lib turadi. Bu bog'lanishda tayanch-harakatlanish sistemasini muhim ahamiyatga ega. Harakatlanish tufayli odam ish bajaradi, atrofdagi odamlar bilan muloqotda bo'ladi.

Tayanch-harakatlanish sistemasini skelet va muskullar sistemasidan iborat. Odam skeletining funksiyasi–ko'p qirrali. Eng muhimi u gavdada tayanch va himoya vazifasini bajaradi. Skeletning tayanch funksiyasi orqali odam gavdasini tik tutadi. Skelet ichki organlarni, qon tomirlari va nerv sistemasini himoya qilish funksiyasini ham bajaradi.

Tayanch-harakat a'zolarining nonormal rivojlanishi natijasida turli potologik jarayonlar vujudga keladi. Masalan, harakat-tayanch a'zolari jarohatlanganda bolalar serebral falaji kelib chiqadi.

Bolalar serebral falajida miyaning harakat va nutq sistemasida erta organik buzilishlar kuzatiladi. Bu buzilishlarning sabablari turlicha: infeksiyon kasalliklar, homiladorlik davridagi turli intoksikatsiya va jarohatlanishlar, surunkali kasalliklar, ona va homila qonining rezus faktor va guruhi bo'yicha nomunosibliigi bo'lishi mumkin. Bundan tashqari homilaning erta yoki kech tug'ilishi, genetik faktorlar ham asosiy shartlardan bo'lishi mumkin.

Bolalar serebral falaji ona homilasining faoliyatini buzilishi natijasida sodir bo'ladigan akusherik jarohatlari, tug'ruq paytida kindikni bo'yin atrofida o'ralib qolishi natijasida ham paydo bo'lishi mumkin. Bunday holatda bolaning markaziy nerv sistemasiga kislorod yetishmay qolib, bosh miya nerv hujayralarini zararlanishiga olib kelishi mumkin. Bolalar serebral falaji tug'ruqdan keyin neyroinfeksiyalarning kechishi va bosh miyaning qattiq jarohatlanishidan ham kelib chiqishi mumkin. Bu bolalarda barcha harakat funksiyasini shakllanishida susayish va buzilishlar kuzatiladi. Boshni ushlab, o'tirish, turish funksiyalari qiyinchilik bilan yoki kechikib shakllanadi. Bolalar serebral falajida harakatning buzilishi asosiy nuqso hisoblanib, u o'ziga xos motor anomaliyani rivojlanishini ko'rsatadi, bu esa o'z navbatida bola asab-psixik funksiyasini rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Serebral falajlik rivojlanishining ilk bosqichlarida miyaning harakatlanishini nazorat qiluvchi qismlariga jarohat yetishi sababli kelib chiqadi. Ko'p holatlarda bu jarohat homiladorlik davrida ro'y beradi. Ba'zan tug'ruq jarayonida va chaqaloqlik davridagi miya jarohatlari (kislorod yetishmovchiligi sababli bo'g'ilish–asfiksiya, meningit, bosh qismining lat yeyishi yoki chayqalishi)da ro'y beradi. Har 1000 ta boladan 2 tasida serebral falajlik qayd etiladi.

Serebral falaj bolalar quyidagi qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin:

- Tananing qismlari yoki butunlay harakatlanmasligi;
- Og'zaki bo'lmagan muloqot (yuz ifodasi har doim ham emotsiyalarni to'g'ri anglatmasligi mumkin ya'ni, bola kulayotgandek tuyulishi mumkin ammo aslida u juda hafa yoki g'amgin bo'lishi)dagi;
- Muskullarda ixtiyorsiz harakatlar (spazmlar)dagi;
- Ovqatlanishdagi muammolar;
- Muskul bo'shligi yoki tarangligidagi muammolar;
- Muvozanat va mo'ljalidagi muammolar;



– Holat (gavdani istalgan holatga qo'yiish va shu holatda saqlash);

Kasallikning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan harakat buzilishlari bola serebral falajida har xil namoyon bo'ladi. Bosh miyadagi harakat markazlarining jarohatlanish darajasi, xususiyatlariga ko'ra, bolalarda tayanch-harakat a'zolaridagi turli xildagi falajlanishlarni keltirib chiqaradi. Shunga ko'ra, bu toifadagi bolalar quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

- Ikki yoqlama gemiplegiya;
- Spastik dipligiya;
- Giperkinestik shakli;
- Gemiparetik shakli;
- Atonik-astatik shakli;

Ikki yoqlama gemiplegiya – bolalar serebral falajining eng og'ir shaklidir. Bu bolalarda inson uchun eng muhim bo'lgan funksiyalar: nutqiy, ruhiy va jismoniy holatlarda og'ir buzilishlar mavjud bo'ladi. Bunday shaklning tashqi ko'rinishidagi asosiy belgilari: bola tanasining bir qismi falajlangan bo'lib, asosan qo'l bukilgan holatda, qo'l ham oyoq ham ichkariga qaragan va bukilgan holatda bo'ladi.

Spastik dipligiya– bu eng ko'p tarqalgan shakli bo'lib, ma'kum bir og'ir kasallik yoki Lital sindromining ta'sirida kelib chiqadi. Spastik dipligiya shaklidagi bolalarda ikkilamchi nuqson sifatida ruhiy rivojlanishida sustlashishi kuzatiladi. 30-35% bu shakldagi bolalarda yengil darajadagi aqliy zaiflik, 70%ida esa nutq nuqsonlari kuzatiladi. Spastik dipligiya turidagi falaj bolalarning oyoqlari qo'llariga nisbatan ko'proq serebral falajlik ta'siri ostida bo'lib, qo'llar biroz beo'xshov harakatlanadi. Oyoqlar bir-biriga yopishgan va ichkariga qaragan holatda bo'lishi kuzatiladi.

Gemiparetik shakli – bir tomonlama falajlik kuzatiladi ya'ni bolaning bir tomonlama oyog'i va qo'li falajlanadi. Bu bolalarning 25-35%ida nutq nuqsonlari kuzatiladi. Giperkinestik shakli – kelib chiqishiga ilk vaqtda gemolitik kasalliklarning natijasida bilirubin ensefalofatiyasi sabab bo'ladi. Bu bolalarda harakatlanishdagi buzilishlar kuzatiladi. Bolalar serebral falajining giperkinestik shaklining tug'ma turida bolalar juda kech o'tiradilar, kamdan-kam hollarda 2-3 yoshdan boshlab yura boshlaydilar, ko'p hollarda ular 4-7 yoshlardan boshlab, xatto 9-12 yoshlarida mustaqil yurishlari mumkin. Bu bolalarning 90% ida giperkinetik dizartriya uchraydi.

Atonik-astatik shakli- boshqa shakllarga qaraganda yengilligi bilan xarakterlanadi. Ularda harakat muvozanatidagi buzilishlar, reflekslar tonusidagi buzilishlar kuzatiladi

Ayrim hollarda serebral falajlikning aralash shakli ham uchrab turadi. Bu shaklda bolada spastik-giperkinetik odatlar yoki atetoz harakatlar (nazorat qilib bo'lmaydigan, g'ayri oddiy harakatlar) bilan mushaklar tonusining tarangligi bilan kelishi mumkin.

Serebral falaj bolalardagi mavjud nuqsonlarni korresiyalashda nuqson turini erta aniqlab, alohida yondashish juda yaxshi samara beradi. Serebral falajning dastlabki belgilari:

- Bola tanasining bo'shashgan yoki qotib qolgan bo'lishi tug'ilishi bilan ko'zga tashlanishi mumkin. Ammo hamma vaqt ham buni sezishning imkoni bo'lavermaydi.

- Kutilmaganda tananing qotib qolishi. Bunda bolani orqasi bilan yotqizish yoki bag'riga bosish kerak bo'lganda tanasini egish qiyin bo'ladi.

- Tananing bo'shashishi. Chaqaloqning boshi bo'shashgan bo'ladi va boshini kotara olmaydi. Ko'tarib turganda uning boshi va oyoqlari osilib turadi. Juda kam harakatlanadi.

- Sekin rivojlanish. Bola odatdagidan sekin rivojlana boshlaydi. Tanasining bir qismidan boshqasiga nisbatan ko'proq foydalanishi mumkin. Masalan, ba'zi bolalar ikkita qo'lidan ko'ra bir qo'lidan foydalanadi.

- Sust ovqatlanish. Ovqatni yutish sust bo'ladi. Bola tili bilan ovqatni og'zidan chiqarib tashlaydi. Og'zini yopishda qiynaladi.

- Noodatiy harakatlar. Bola yomon uhlaydigan va ko'p yig'laydigan, ko'p bezovtalanadigan bo'lishi mumkin yoki aksincha ko'p uhlaydigan va tovush chiarmaydigan bo'ladi. Uch oylik bo'lguncha kulmasligi mumkin.



Bundan tashqari boladagi serebral falajlikni aniqlashda quyidagilarni kuzatish tavsifiya etiladi:

Bolada serebral falajlanishni aniqlash ba'zi hollarda ancha qiyin kechishi mumkin. Buning uchun bolani har bir rivojlanish davrida kuzatib borish lozim. Agar bolada serebral falajlik mavjud bo'lsa quyidagicha holatlar kuzatiladi.

1 oyligida: bolaning oyoqlari bukilmaydi. Boshini ko'tara olmaydi va qo'llari bilan ko'tarilishga harakat qila olmaydi. Boshi bir tomonga qaragan holda orqasini ko'tarishga harakat qiladi. Qo'llarini bir-biriga tekkiza olmaydi.

6 oyligida: Boshini ko'tara olmaydi. Beli bukilgan holatda bo'ladi. Qo'llari bukilmaydi, kafti musht holatida bo'ladi. Boshi og'ib ketadi yoki o'tirganda orqaga tortib ketadi. Oyoqlari bukilmaydi va qaychiga o'xshash ustma-ust holatda bo'ladi.

12 oylik: biror narsa yoki o'yinchoqlarni ushlab turishda qiynaladi va ularni qo'lidan tez-tez tushirib yuboradi. Oyoqlari bukilmaydi, emaklay olmaydi, tanasining faqat bir qismidan foydalanadi.

18 oylik: tik turganda muvozanatni tik tutib turolmaydi. O'ynaganda faqat bir qo'lidan foydalanadi. Bir oyog'i qotib qolgan bo'lishi mumkin. Tana og'irligini faqat bir tomonga tashlagan holda o'tiradi.

Bolalar serebral falaji klinikasida nutq buzilishi asosiy o'rinni egallaydi. Bolalar serebral falajida nutq chastotasi 80% ni tashkil etadi. Nutq buzilishlarining o'ziga xos tomonlarimiyani qay darajada zararlanishiga qarab belgilanadi. Serebral falajga ega bolalarda ba'zi miya sohasidagi zararlanish bilan birga bosh miya po'stloq qismining buzilishini ikkilamchi rivojlanmaganligi yoki kech rivojlanganligi ham namoyon bo'ladi. Bu miyaning ontogenetik tomondan .yosh bo'lgan bo'limlari bo'lib, u insondagi psixik va nutq faoliyatini shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Bolalar serebral falajida nutq kechikishiga sabab, miyaning po'stloq bo'limlari sekin shakllanishigagina emas, balki ularda amaliy faoliyatni yetarli emasligi, atrof-muhit haqida bilim va tasavvurlarning yetishmasligidir. Tarbiyaning notog'ri kechishi nutq rivojlanishini orqada qolishini murakkablashtiradi. Bu bolalar hayotining birinchi yillarida turli davolash muassasalarida bo'ladilar, agarda u yerda pedagogik ishga yaxshi ahamiyat berilmasa, bolaning nutqiy rivojlanishi kechikishi mumkin. Bundan tashqari bolalarning onasidan uzoqda bo'lishi salbiy emotsional holat, yangi muhitga o'rgata olmaslik nutqning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalar serebral falajida nutq buzilishlari patogeneza harakat patologiyasi muhim o'rin tutadi. Bu bolalar bilan logopedik ishni tashkil qilishda nutq va harakat buzilishlarini klinik va patogenetik umumiylikni tushunish ahamiyatli hisoblanadi.

"Serebral falajlanish nuqsoniga ega bolalar" bilan lug'atni shakllantirish bo'yicha ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirib boriladi. Birinchi bosqichda bolalar predmetlar bilan ularning tasviri va ular bilan bajariladigan ishlar bilan birlamchi tanishtiriladi. Bu o'rinda bolaning e'tiborini jalb qilishga va uning javob reaksiyasini qo'zg'atishga yordam beradigan bir qator usullar qo'llanadi: ya'ni predmetni kutilmaganda, to'satdan paydo bo'lib qolishi, yo'qolishi, uning harakati. Shunday qilib, serebral falajli bolalar leksiyasini takomillashtirish va boyitish predmeti - amaliy va o'yin faoliyati bilan uzviy bog'liq holda olib borish, shuningdek, sensor funksiyalarni rivojlantirish va ularning korreksiyasini ongli faoliyati bilan chambarchas bog'liq holda tasgkil qilishni ko'rsatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D.R.Matazizova "Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari" Toshkent "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti 2018.
2. M.Y.Ayupova "Logopediya" Toshkent "O'zbekiston faylasuflari million jamiyati" nashriyoti 2007.
3. P.M.Po'latova, L.N.Nurmuhammedova, D.B.Yakubjonovna "Maxsus pedagogika" Toshkent "Fan va texnologiya" nashriyoti 2014.
4. V.S.Raximova "Defektologiya asoslari" Toshkent "Niso Poligraf" nashriyoti 2014.